

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING METOKOMPETENTLIGINI YAXSHILASHDA INTEGRATIV "4 K" KO'NIKMALAR MODELIDAN FOYDALANISH

Shobekova Nigora Mamurovna

NamDPI mustaqil tadqiqotchisi, Qo'qon shahridagi 1-son maktab o'qituvchisi

E-mail: nigorashobekova234@gmail.com Tel: +99890 308 77 26

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik yondashuv sifatida "4 K" ko'nikmalari modelidan foydalanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini yaxshilash bo'yicha o'rganishlar natijalari bayon etilgan. O'qituvchilarning "4 K" modelidan qanday foydalanishi va pedagogik jarayondagi samaradorligini baholash va tadqiq etish mazkur tadqiqotning maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning dars jarayonlaridagi kuzatishlar, o'qituvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi so'rovlar asosida olingan natijalari modelning pedagog kasbiy mahoratini yanada oshirishi va pedagogik muhitni yaxshilanganini ko'rsatdi. Tadqiqotdan olingan xulosalar boshlang'ich sinflar bilan ishlashda pedagoglarga zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar "4 k" ko'nikmalar modeli orqali yaxshi o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: metakompetentlik, "4 k" ko'nikmalar modeli, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, integrativ yondashuv, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, ta'lim innovatsiyalari, metakognitiv ko'nikmalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНОЙ МОДЕЛИ НАВЫКОВ «4 К» В ПОВЫШЕНИИ МЕТАКОНКУРЕНТНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования по повышению методической компетентности будущих учителей начальных классов с использованием модели навыков «4 К» в качестве педагогического подхода. Целью данного исследования является оценка и исследование применения учителями модели «4 К» и её эффективности в педагогическом процессе. Результаты исследования, основанные на наблюдениях за процессом уроков и опросах учителей, показали, что модель способствует дальнейшему развитию педагогического мастерства и улучшению педагогической среды. Выводы, сделанные в ходе исследования, показали, что профессиональные навыки, необходимые педагогам при работе с учащимися начальных классов, лучше всего освоить и применить на практике с помощью модели навыков «4К».

Ключевые слова: метакомпетентность, модель навыков «4 К», учителя начальных классов, интегративный подход, креативность, критическое мышление, коммуникация, образовательные инновации, метакогнитивные навыки.

USE OF THE INTEGRATIVE “4 K” SKILLS MODEL IN IMPROVING THE METACOMPETITIVE COMPETENCE OF PRIMARY TEACHERS

Annotation: *This article presents the results of studies on improving the methodological competence of future primary teachers using the “4 K” skills model as a pedagogical approach. The purpose of this study is to evaluate and investigate how teachers use the “4 K” model and its effectiveness in the pedagogical process. The results of the study, based on observations in the lesson processes, surveys among teachers and teachers, showed that the model further enhances pedagogical professional skills and improves the pedagogical environment. The conclusions drawn from the study showed that the professional skills needed by educators when working with primary grades can be best mastered and put into practice through the “4 K” skills model.*

Keywords: *metacompetence, “4 K” skills model, primary teachers, integrative approach, creativity, critical thinking, communication, educational innovations, metacognitive skills.*

KIRISH

O'zbekiston ta'lim tizimida kichik sinflar uchun o'quv adabiyotlari tuzish va dars metodologiyasini ishlab chiqishda “4k” kompetensiyalar modeliga e'tibor qaratilmoqda. Maqolaning maqsadi – ushbu modelni amaliy tatbiq etish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakompetentligini yaxshilash usullarini tadqiq qilish va takliflar berishdir. Zamonaviy ta'lim muhitini ta'minlash uchun pedagoglarning ushbu modeldan habardorlik darajasi va uning o'zlashtirishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida ko'rilsa, jiddiy yondashuvni talb etadi. Pedagogik jihatdan yurtimizda modelning targ'ib etilishi istiqbollari va metodik muvofiqlashtirish masalalarini o'rganish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzu yuzasidan ilmiy-pedagogik izlanishlar xorij pedagog-olimlaridan Abrami, P.C., Bernard, R.M., Bodrova, E., & Leong, D.J. kabilar tomonidan nazariy-pedagogik asoslangan va talqin qilingan. [1] Partnership for 21st Century Skills (2018) tashkiloti ta'lim tizimlarida “4K” ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydi va ularni o'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga qanday kiritish bo'yicha tavsiyalar beradi. Yurtimizda ham ushbu modelning ta'lim tizimimizga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirib borilmoqda.

Tadqiqot davomida dars jarayonlarida qo'llangan kompetensiyalar modelining o'quvchilar va ta'lim beruvchilardagi kognitiv qobiliyatlarini oshirishi, ko'nikmalarni rag'batlantirishda qo'llangan an'anaviy va interfaol dars metodlaridagi natijadorlik holislik, tizimli tahlil yordamida o'rganildi. Tajriba sifatida Qo'qon shahridagi 1-son maktab boshlang'ich sinf o'quvchilari tanlab olingan va kuzatish metodi yordamida o'rganilgan. O'quvchilar va ta'lim beruvchilar faoliyatini kuzatib boorish bilan samaradorlik darajasi nazorat qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim innovatsiyalarida pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishi uchun metodik yangiliklar ta'lim jarayoniga joriy etib, takomillashtirib borilmoqda. Boshlang'ich sinflar ta'limida qo'llaniluvchi 4K ko'nikmalari metodi ham pedagoglarda metakomponentlikni oshirishga yordam beruvchi usul sifatida rivojlangan ta'lim tizimiga ega davlatlarda faol qo'llanmoqda. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. [2]

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ularning professional rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilarning asosiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, jumladan "4K" kompetensiyalar modeli katta ahamiyatga ega. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim o'qitish va o'rganishni baholash uchun asosdir. U, shuningdek, natijalarga va real hayotdagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratuvchi, oldindan belgilangan "kompetentliklarga" asoslangan ta'lim turi sifatida tavsiflanadi. [3]

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakomponentligi (o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati) muhim ahamiyatga ega. Metakomponentlikning kamligi o'quv jarayonining samaradorligini pasaytiradi va o'quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, integrativ "4 K" ko'nikmalar modeli (Kompetentlik, Kreativlik, Kritik fikrlash va Kommunikatsiya ko'nikmalari) dan foydalanish taklif

etiladi. Bu model o'qituvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish, ijodiy yechimlar topish, muammolarni tahlil qilish va samarali muloqot qilishni o'rgatadi.

Keyingi vaqtlarda pedagoglarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o'qitishning interfaol shakl va uslublari hamda XXI asr ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan. [4] Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metokompententligini yaxshilashda integrativ "4K" ko'nikmalar modelidan foydalanishning samaradorligini o'rganishdir. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar va muhokamalarni keltirish mumkin.

O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat. Bu jarayonda "4K" kompetensiyalar modelining qo'llanilishi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: Tayyorlov dasturlari orqali muvofiqlashtirish. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida "4K" ko'nikmalarini integratsiyalash zarur. Bu, o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Dars jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratini oshiradilar. Masalan, loyiha asosidagi o'qitish, muammoli vazifalar va interaktiv darslar orqali "4K" kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. O'qituvchilar uchun doimiy ravishda treninglar, seminarlar va master-klasslar tashkil etish zarur. Bu tadbirlar orqali pedagogik ko'nikmalarini yangilab borish mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, "4K" ko'nikmalari — kritik fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya — o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ushbu ko'nikmalarni o'z darslarida qo'llagan holda, o'quvchilarning faol ishtirokini oshirishlari, ularning o'z-o'zini anglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Ayni shu jihatlari kompetensiyaga asoslangan integrativ ta'limning ajralib turuvchi jihatlari. A. Devidning fikricha, - "Tajribali o'rganish ham asosli tushunchadir; kompetensiyaga asoslangan ta'lim o'quvchilarga yo'naltirilgan va ko'pincha o'quvchilarga qaratilgan. [5]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning metokompententligini oshirish uchun "4K" ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda qo'llash zarur. O'qituvchilar o'z pedagogik metodologiyalarini yangilab, innovatsion yondashuvlarni

joriy etganlarida, nafaqat o'z bilimlarini kengaytiradilar, balki o'quvchilarning o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini ham oshiradilar.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashlari, tajriba almashishlari va bir-birlaridan o'rganishlari orqali "4K" ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantirishlari mumkin. O'quv jarayonida jamoaviy ishlarni tashkil etish orqali, o'quvchilar orasida ijobiy munosabatlar va jamoaviy fikrlash madaniyatini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotda 50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishtirok etdi. Integrativ "4K" ko'nikmalar modeli (Kompetentlik, Kreativlik, Kritik fikrlash va Kommunikatsiya)ni 6 oy davomida tatbiq etish natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning metakomponentligi sezilarli o'sdi. Anketa natijalariga ko'ra, kreativlik ko'nikmasi 65% o'quvchilarda yaxshilandi, kritik fikrlash 70%da ko'tarildi, kommunikatsiya qobiliyati esa 60%da rivojlandi. Intervyular orqali olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'z darslarini samaraliroq rejalashtira boshladilar va o'quvchilar bilan muloqotni yaxshiladilar. Shuningdek, nazorat guruhidagi o'qituvchilar bilan solishtirganda, tajriba guruhida metakognitiv baholash testi natijalari 15% yuqori chiqdi.

O'qituvchilarning ijodkorlik darajasini oshirish uchun "4K" ko'nikmalaridan foydalanish, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi. [6] Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ijodiy yondashuvlarni qo'llagan o'qituvchilar o'z darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- O'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida "4K" ko'nikmalarini integratsiyalash: Ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu ko'nikmalarni kiritish zarur. Bu o'qituvchilarning metakomponentligini oshirishga yordam beradi;
- Doimiy professional rivojlanish: O'qituvchilar uchun doimiy ravishda treninglar va seminarlar tashkil etish lozim. Bu tadbirlar orqali ularning pedagogik ko'nikmalarini yangilab borish mumkin;

- Hamkorlik va tajriba almashish: O'qituvchilarni bir-birlari bilan tajriba almashishga rag'batlantirish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini yaratish kerak. Bu nafaqat ularning metokomponentligini oshiradi, balki ta'lim jarayonini ham yaxshilaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metokomponentligini yaxshilashda integrativ "4K" ko'nikmalar modelidan foydalanish samarali usul hisoblanadi. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatlarini yangilash, ijodkorlikni oshirish va hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Kelgusida ushbu yondashuvlarni amaliyotga tadbqiq etish ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anna Kwatera. The Concept of 4C Competences in Pre-School and Early School Education: Challenges, Opportunities and Pedagogical Recommendations. Elementary education in theory & Practice Vol. 20, 2025, No. 3(78) p.25
2. <https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida?> [Murojaat qilingan sana: 10.10.2025]
3. Lytras, Miltiadis D.; Pablos, Patricia Ordonez De; Avison, David; Sipior, Janice; Jin, Qun; Filho, Walter Leal; Uden, Lorna; Thomas, Michael; Cervai, Sara (2010). Technology Enhanced Learning: Quality of Teaching and Educational Reform: 1st International Conference, TECH-EDUCATION 2010, Athens, Greece, May 19-21, 2010. Proceedings. Berlin: Springer Science & Business Media. p. 504.
4. A.Qoriyev. "Tarix fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan. 2024. 6-bet.
5. Kolb, David A. (2014). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development, Second Edition*. Upper Saddle, NJ: FT Press. p. 17.
6. M. Ganiyeva. Ta'limda yangi texnologiya: 4k modeli va uni amalga oshirish yo'llari. "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omil" xalqaro konferensiyasi 2024. Toshkent. 197-bet.